



Tadqiqot UZ



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 NOYABR
№34**

CONFERENCES.UZ

**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”
14-ҚИСМ**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»
ЧАСТЬ-14**

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF
UZBEKISTAN»
PART-14**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 34-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

1. Дилшодбеков Шохбоз Дилшодбек угли, Турсунбаева Хилола Хамро қизи СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИИ И КОМПЬЮТЕРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКЕ	7
2. Sheralieva Shaxnoza TASVIRIY SAN'AT TUR VA JANRLARI VA XUSUSIYATLARI.....	9
3. To'qsanova Salima Salimovna TASVIRIY SAN'AT FANI O'QITISH TEXNOLOGIYASI.....	11
4. Xursandova Latofat Faxriddin qizi MILLIY MATOLARIMIZ – BEQIYOS BOYLGIMIZ	13
5. Yusupova Shohista Alimjanovna, Tursunboyeva Diyora Jahongir qizi TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA MANZARA JANRIDA IJOD QILGAN RASSOMLARNING USLUBLARINI TAHLIL QILISH	15
6. Yusupova Shohista Alimjanovna, Bozorova Laylo Komiljon qizi O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATINING RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN RASSOMLAR IJODINING MUHIM AHAMIYATI.....	17



ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ И КОМПЬЮТЕРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКЕ

Дилшодбеков Шохбоз Дилшодбек угли.

Доцент и/о кафедры Инженерная и
компьютерная графика ТГПУ им Низами
Shokhbozdilshodbekov@gmail.com

Турсунбаева Хилола Хамро қизи.

студентка третьего курса факультет Профессионального
образование ТГПУ им Низами
Tursunbayevahilola4@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные требования и компьютерные технологии в инженерной графике.

Ключевые слова: GLTF, аддитивные технологии, 3D печать.

Учитывая мировые тенденции развития и требования, предъявляемые к работникам 21 века, можно утверждать, что основными направлениями развития содержания инженерной графики, согласно исследованиям Степаковой В.В. [2], станут такие:

- коммуникативная направленность предмета, что потребует введения нового материала, систематизирующего представления студентов о различных графических системах представления информации;
- культурологическая направленность предмета будет обеспечиваться формированием представлений о графическом языке как синтетическом языке, имеющем различные системы (изобразительную, знаковую) отображения информации в трехмерных объектах, его зарождении, развитии и месте среди других языков, созданных мировой культурой;
- лингвистическая направленность потребует введения новых знаний о структурных единицах графического языка, об отображаемой и условно отображаемой информации на чертежах;
- проблемно-ориентированная направленность позволит познакомить студентов с элементами проектирования, конструирования, моделирования;
- профессионально-ориентированная направленность курса раскроет применение графических знаний в науке, технике, производстве, дизайне, архитектуре, экономике и других областях деятельности, а также покажет значение графических знаний и умений в информационном мире;
- информационная направленность обеспечит знакомство с компьютерной графикой, а также расширит представление студентов о способах (ручном, компьютерном) отображения, хранения и передачи графической информации.

Термин облачные технологии утвердился только в 2007 году. Под облачными технологиями (от англ. cloud computing) понимается предоставление пользователю компьютерных ресурсов и мощностей в виде интернет-сервисов и приложений, которые одновременно используют неограниченное количество пользователей [1].

GLTF (GL Transmission Format) — это формат файла для хранения 3D сцен и моделей, который является крайне простым в понимании (структура записана в стандарте JSON), расширяемым и легко взаимодействующим с современными веб-технологиями. Данный формат хорошо сжимает трёхмерные сцены и минимизирует обработку во время выполнения приложений, использующих WebGL и другие API. glTF сейчас активно продвигается Khronos Group как JPEG от мира 3D.

Аддитивные технологии производства позволяют изготавливать любое изделие послойно



на основе компьютерной 3D-модели. Такой процесс создания объекта также называют «выращиванием» из-за постепенности изготовления. Если при традиционном производстве в начале мы имеем заготовку, от которой оптом отсекаем все лишнее, либо деформируем ее, то в случае с аддитивными технологиями из ничего (а точнее, из аморфного расходного материала) выстраивается новое изделие. В зависимости от технологии, объект может строиться снизу-вверх или наоборот, получать различные свойства.

Под аддитивным производством понимают процесс выращивания изделий на 3D-принтере по САД-модели. Этот процесс считается инновационным и противопоставляется традиционным способам промышленного производства.

Литература

1. Емельянова, О.А. Применение облачных технологий в образовании /О.А. Емельянова // Молодой ученый. – 2014. – № 3. – С. 907-909.
2. Степакова В.В., Кухарчук А.И. Современные подходы к преподаванию графических дисциплин в общеобразовательной и высшей школах России. // Начертательная геометрия, инженерная и компьютерная графика: Межвузовский научно-методический сборник трудов кафедр графических дисциплин. Выпуск 5. - Н.Новгород: Ниже-городский государственный архитектурно-строительный университет, 2000,- С.59-62.
3. Dilshodbekov Sh. The essence of teaching engineering computer graphics as a general technical discipline. «European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences». Vol. 7 No. 12, 2019. 18-23 p.



TASVIRIY SAN'AT TUR VA JANRLARI VA XUSUSIYATLARI

Sheralieva Shaxnoza

Andijon viloyati Ulug'nor tumani

4 – maktab Tasviriy san'at va

Chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada tasviriy san'at turlari janrlari va xususiyatlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at nazariyasi, tur va janrlari, qalamtasvir texnologiyasi, akvarel, guash, tempera, moy bo'yoq texnologiyasi.

Hozirgi kunda barcha fanlar qatori amaliy fanlarning ham o'rni beqiyos. Shunday ekan biz san'atning turlari shakllari haqida yoritishni afzal ko'rdik. San'atning turlari juda ko'p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san'at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. San'atkor real borliqni o'z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko'chirmaydi. Aks holda, u yaratgan san'at asarlarining fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo'lmay qoladi. San'atkorning vazifasi oliyroqdir. U hayotda mavjud bo'lgan voqea va hodisalarni tasvirlar ekan, u tasvir orqali o'zini hayajonlantirgan biron bir fikrni ilgari suradi, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishga intiladi, ularga o'z munosabatini bildiradi, hukmini chiqaradi. Masalan, rassom biror shaxsning rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatishga intilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasviri orqali, avvalo, o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Tomoshabin rasmda tasvirlangan olijanob, mard kishilar obrazini ko'rib, undan g'ururlanadi (chunki rassom ham g'ururlanib shu rasmni ishlagan) unga taqlid qiladi, undan o'rnak oladi. Agar asarda pastkash, razil odam tasvirlangan bo'lsa, tomoshabin undan nafratlanadi. Tomoshabin o'zida shunday xususiyatlar bo'lmasligi uchun harakat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari san'atning boshqa turlari - adabiyot, kino, teatr va hokazolar kabi insondagi ajoyib fazilat borliqni bilish, uni o'rganish va sirlarini ochishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga faol ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy san'at asarlari ko'rish uchun mo'ljallangan san'atdir. Uni ko'rish orqaligina zavq olish mumkin.

Grafika. Hozirgi zamon san'atining keng tarqalgan turlaridan biri grafika san'atidir. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mavzulik kompozitsiyalar, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasm, illyustratsiya, plakat, karikatura, sharj, etiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi.

Rangtasvir. Tasviriy san'atning ikkinchi bir turi rangtasvir san'atidir. Devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr dekoratsiyalari shu san'at turiga kiradi. Rangtasvirda rang muhim o'rinni egallaydi. Agar grafika san'atida rang shunchaki yordamchi vazifani o'tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ko'rinarli obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiylikni, hajmini ko'rsatadi. Rangtasvir asarlari yana o'zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko'ra monumental, dastgoh va dekorativ turlarga bo'linadi.

Haykaltaroshlik. Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik asarlarida borliq hajmga ega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Stol ustiga qo'yiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o'rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolarning devorlariga, tanga, belgi, medal kabi buyumlarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishi hisoblanadi.

Dekorativ-amaliy san'at. San'atning keng tarqalgan turlaridan biri dekorativ amaliy san'atdir. Bu san'at hayotda ishlatiladigan buyumlar, idish-ovoq, kiyim-kechak, mebel, gilam, o'yinchoqlar va boshqa shu kabilarni bezatishni o'z ichiga oladi. Dekorativ-amaliy san'at asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarak-atrofga, park-bog', uylarning tashqi va ichki ko'rinishiga go'zallik kiritish vazifalariga xizmat qiladi. Bu san'at dastgoh san'atidan o'zining bevosita xalq ehtiyojiga moslanganligi bilan farq qiladi va inson hayotida ishlatiladigan buyumlarning mazmunidan kelib chiqadi va shunga bo'ysunadi. Dekorativ-amaliy san'atda real voqeliklar (masalan, gullar, hayotiy lavhalar va hokazolar), aks etishi mumkin, lekin ular mustaqil xarakterga ega bo'lmaydi hamda ma'lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog'liq bo'ladi.



Tasvirlangan voqealarda shartli elementlar keng o'rinni egallaydi. Dekorativ san'at buyumlari birmuncha erkin, ijodkor fantaziyasiga bog'liq holda yaratiladi va eng avvalo, tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomoniga ishlanadigan rangli naqsh va bo'rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymatov B. “Qalamtasvir o'qitishning ilmiy asoslari” darslik Toshkent
2. 1995 yil. 3. Boymetov B “Portret qalam tasvir” Toshkent 2001 yil. 4. Tojiev
3. B. “Qalam tasvir asoslarini o'rganish” Toshkent 1994 yil.



TASVIRIY SAN'AT FANI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

To'qsanova Salima Salimovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tuman

15-umumiy o'rta ta'lim maktabi

tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'at fani o'qitish texnologiyasi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: “Evristik ta'lim”, “Ijodiy mashq”, muhokama, tasvir...

Ma'lumki, ta'lim olish (ma'lumot olish) jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa birov- ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi. Ta'lim metodi - bu ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo'l-yo'rig'i.

O'quvchi markazda bo'lgan (interfaol yoki interaktiv) uslublar.

Odatda ushbu uslublardan biri yoki bir nechta ayrim o'qitish modellarida birvarakayiga foydalaniladi. Odatda dars jarayoni ikki yoki undan ortiq asosiy uslublardan tashkil topadi va bu uslublar dars mavzusiga to'la muvofiq bo'lib, o'quvchilarning bilim va tajribasi qay bosqichda ekanligiga qarab qo'llaniladi.

O'qituvchi markazda bo'lgan uslub. Bu uslub orqali o'qituvchi o'zi egallagan ma'lumot va ko'nikmalarni o'quvchilarning sezgi organlari orqali uzatish yo'llarini qidiradi. Bunda o'quvchilarning ishtiroki passiv bo'ladi, ya'ni ular tinglaydilar, kuzatadilar va ma'ruzalarni yozib boradilar.

Tasviriy san'at darslarini o'qitishga oid muammolar maktablarning tasviriy san'at o'qituvchilari uchun talaygina. Ularni to'g'rilash va bartaraf etishning yo'llaridan biri sinf o'quvchilari uchun tasviriy san'at darsliklari, qo'shimcha manbalar ustida ishlashdir. Lekin, hanuzgacha bu sohada muammolar uchrab turibdi. Shuni hisobga olib bugungi kunda tasviriy san'at darslarida qo'llash uchun ishlatiladigan quyidagi usul va o'yinlarni tavsiya etmoqchiman. Har bir narsani o'ziga qarab rasm ishlash, san'atshunoslik asoslari, kompozitsion faoliyatga oid bo'lib ularni grafikada, rangtasvirda natryurmortlar va manzaralar yaratish kabi masalalar yoritiladi.

“Ijodiy mashq” usuli. Ushbu usul o'ziga xos xususiyarga ega bo'lib, o'ziga xoslik rasmlarni tasvirlashning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

“Evristik ta'lim” usuli. Bunda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish. O'qituvchi bilimlarning bir qismini o'quvchilarga, ma'lum qiladi qolganini esa o'quvchilar topshiriqlarni yechish jarayonida savollarga javoblar toppish asosida o'zlashtiradi o'zlari bilimlarni mustaqil egallashadi.

“Xatolarni topamiz” usuli.



Tashkil etish tartibi. O'qituvchi bolalarga kartochkalarni chizilgan rasmlarni o'qib beradi. O'quvchilar rasmlarni diqqat bilan ko'rib, qanday xatolar topganliklarini, to'g'ri yechimi qanday bo'lishi lozimligini tushuntirib berishlari lozim.

“O'z xotirangni sinovdan o'tkaz” usuli. Bunda o'qituvchi o'z mavzularidan kelib chiqib, qog'ozga berilgan topshiriqni (mavzuga oid rasmni) eslab qolish asosida to'g'ri va xatosiz chizishlari lozim.

“O'zingni sinovdan o'tkaz” metodi. Har bir guruh ushbu fandan olgan taassurotlari, bilim va malakalarini



sinovdan o'tkazish maqsadida “O'zingni sinovdan o'tkaz” toshirig'i asosida o'tilgan mavzularga aqliy hujum asosidagi tezkor savol-javoblarga javob berishlari aytiladi.

“Kichik muhokamachi” usuli. Ushbu topshiriq jarayonida o'quvchilarning o'tilgan darslar davomida erishgan yutuqlari va kamchiliklarini shaxsiy kuzatishlari asosida aytishlari, muhokama qilishlari lozim. Ushbu topshiriq turli fanlarda turlicha kechadi.



Tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o'quvchilarni ijodkor, komil, mustaqil fikrga ega bo'lgan insonlar bo'lib shakllanishiga yordam beradigan, nafosat tarbiyasini qalbiga singdiradigan fanni ta'limiy – tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga uslubiy yordam tariqasidadir.

Amaliy rasm chizish jarayonida o'quvchilar o'zlarining qobiliyati, iqtidori, iste'dodi va talantini namoyish etadi. Har bir insonning faqat san'at bilan ochiladigan qopqoqchasi bo'ladi deyiladi. Bola amaliy ishlar bajarish orqali o'zining iste'dodini ko'rsatadi. Chunki tasviriy san'at darslarining hamma turlarini o'qitish jarayonida kompozitsiya yaratiladi. Bu esa ijodiy ish hisoblanadi. Shu orqali o'quvchilarning bilim, kunikma va malakalari shakllanib boradi.

Xullas, yuqorida keltirilgan metodlarni turli xildagi o'yinlar orqali davom ettirish mumkin. Oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri har bir o'quvchiga puxta va chuqur bilim berish, tasviriy san'at faniga qiziqishini oshirish, ularning har tomonlama rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Darsliklar.
2. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz
3. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portal.



MILLIY MATOLARIMIZ – BEQIYOS BOYLIGIMIZ

Xursandova Latofat Faxriddin qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI

Amaliy san'at va dizayn fakulteti

Libos va gazlamalar mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Telefon: +998 91 166 16 98

xursandova98@gmail.com

Annotatsiya: Respublikamiz ipak gazlamalari xususan, abrli matolarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni rekonstruktsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash, milliy matomiz xon atlas assortimentini ko'paytirish, xon atlas matosining xususiyati va qulayliklarini keng ommaga targ'ib qilish hamda xon atlasdan zamonaviy dizayndagi liboslar yaratish hozirgi kunimizning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: abrli matolar, podyum, xon atlas, adras, atlas, assortiment, avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, texnologik jarayon, beqasam, banoras, tabiiy ipak, sun'iy ipak, krepdeshin, krepjorjet, krepshifon.

Ta'biy hom ashyodan tayyorlangan mahsulotga talab kundan kunga oshmoqda. Jahon modasida paxta hamda ipak matolaridan tayyorlangan matolar iste'molchi e'tiborini qozonmoqda. Milliylikimizni o'zida aks ettirayotgan atlas, adras kabi tabiiy matolardan tayyorlanayotgan liboslar jahon podyumlarida o'zining munosib o'rnini egallamoqda. Hukumatimiz tomonidan to'qimachilik sohasi mutaxassislari, olimlari oldiga muhim vazifalar qo'yilayotgani ham bejizdan emas. Mavjud imkoniyatlardan foydalanib, sifatli to'qima ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, to'qimada rang mustahkamligini oshirgan holda sifatli matolar olishga erishish kabi dolzarb vazifalar qo'yilgan. Jahon bozorida “O'zbekistonda ishlab chiqarilgan” yorlig'i ostida raqobatbardosh mahsulot bilan savdo qilishga erishish muammolarini hal etish bugungi kunda yechimini kutayotgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda aholining ipakdan, xususan, xon atlas matosidan tayyorlanayotgan mahsulotlariga bo'lgan talab darajasi ortib bormoqda. Bu esa aholining tayyor mahsulotlarga bo'lgan talablarini qondirish va ularning sifatini muntazam ravishda yaxshilab borish, hamda assortimentlarini ko'paytirish uchun to'qimachilik korxonalarini zamon talablariga javob bera oladigan holda rivojlantirish lozim. Unda mahsulotlar ishlab chiqarishning oshishiga asosan yangi korxonalar qurish hisobiga emas, balki mavjud bo'lgan korxonalar ishini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish hisobiga erishish mumkin. Xon atlas matosini ishlab chiqarishni kengaytirish hamda sifat masalasiga e'tiborni qaratish, xaridor didiga mos keladigan mahsulot yaratish ishlab chiqaruvchilar oldida turgan vazifalardandir. Bilamizki, atlas matosi ishlab chiqarish murakkab va ko'plab texnologik jarayonlarni talab qiladi. Har bir texnologik jarayon yuqori mahorat va e'tiborni talab qiladi. Matoga rang berish jarayoni ayrim naqshlarda qo'l mehnatini talab qiladigan murakkabliklarga ega. Ipak o'zida rang yorqinligini saqlashda kamchiliklarga ega, bu masala ustida ko'plab olimlar ish olib borganlar va bu hozirgi kunda ham davom etmoqda.

O'zbek milliy xon atlas matosi ishlab chiqarilish O'zbekistonda abrli gazlamalar — xon atlas, beqasam, banoras va shular turkumidagi gazlamalar ishlab chiqarish qadimdan ma'lum. Bu tabiiy ipak, uning sun'iy ipak bilan aralashmasi va sun'iy ipaklardan ishlab chiqarilgan xilma-xil turlari nafaqat ayollarning bezakli ko'ylaklarini tikishda ishlatiladi, balki o'zbek oilasida ko'rpacha, ko'rpa, yostiqlar tikishda ham keng ishlatiladi. 60 - yillarda O'zbekistonda abrli gazlamalarga ehtiyoj oshishi uni yirik sanoat asosida ishlab chiqarishni taqozo etdi. Shunga ko'ra avval Marg'ilonda atlas ishlab chiqarish birlashmasi, keyinroq Namanganda abrli gazlamalar ishlab chiqaradigan kombinatlar tashkil etildi. Ulardan tashqari sobiq mahalliy sanoat vazirligi tasarrufida Shahrihon, Izboskan (Andijon viloyati) Kosonsoy (Namangan viloyati), Boysun (Surxondaryo) shaharlarida shoyi to'quv fabrikalari ishga tushirildi. Ularning ishlab chiqaradigan mahsulotlari, asosan abrli gazlamalar edi. Bu sohani jadallik bilan rivojlanishiga, avvalo, ularga talab oshgani bo'lsa, ikkinchi omil o'sha yillarda dunyoda kimyoviy iplarning ishlab chiqarilishi keskin oshgani bo'ldi. Sun'iy ipak tolalari ishlab chiqarilishi rivojlanib ulardan bejirim matolar ishlab chiqarila boshlandi.

Bundan tashqari tabiiy ipakdan nafis bo'lgan krepdeshin, krepjorjet, krepshifon matolari ish-



lab chiqarila boshlandi. Xon atlas matosi abrli gazlamalar qatoriga kiradi. Abrli matodeyilishining sababi uning mexanik va kimyoviy texnologiyasining o'ziga xosligidadir, jilodor naqshlar matoning tanda iplarini bo'yash yo'li bilan hosil qilinadi. Tanda iplarining bo'yalmaydigan joylari paxta kalava ip bilan maxkam bog'lab rang o'tishidan himoyalab qo'yiladi. Abrli nomlanishi forsha abrband – “ bulutni bog'layman” degan iboradan kelib chiqqan. Xon atlas matosida hosil qilingan ranglar undagi naqshlar chegarasini mashinadan gul bosishdan farqli ravishda mayin tugallanishi va o'ziga hos chiziqlari bilan ajralib turadi. Ipak va boshqa tolalardan to'qiladigan matolardan farqli ravishda atlas matosi ishlab chiqarishda dastlab kimyoviy texnologiya so'ng mexanik to'qish texnologiyasi keladi. Dastlab tanda va arqoq iplari qaynatilib bo'yalgandan so'ng to'qish jarayoniga o'tiladi. Shuning uchun kimyoviy jarayonlar sharoitlarini saqlanadigan qilib tanlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.S.To'laboyeva Milliy matolarimizning kelib chiqish tarixi. “Science and education” scientific journal 2021
2. Махкамова С. Узбекские абровые ткани. Государственное издательство художественной литературы, Ташкент, 1963
3. Алимова Х., Даминов А.Д., Бастамкулова Х.Д., Арипджанова Д.У., Боймурадов Б.Х., ГуламовА.Э., «Ткань из натурального шелка» UZ № SAP 01254 (дата регистрации 28.08.2014 г)
4. O'zbek milliy kiyimlari. (XIX-XX asrlar) – Toshkent, 2006 y
5. O.Sh. Rahmatova, M.A. Sharipova. Milliy matolar jozibazi va yaratilish tarixi. Namangan-2019.



TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA MANZARA JANRIDA IJOD QILGAN RASSOMLARNING USLUBLARINI TAHLIL QILISH

Yusupova Shohista Alimjanovna

Guliston davlat universiteti, Guliston shahri

Tasviriy san'at o'qituvchisi

Tel: +998999030286

Tursunboyeva Diyora Jahongir qizi

“San'atshunoslik” fakulteti, Tasviriy san'at

va muhandislik grafikasi kafedrası

73-21 guruh talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada manzara janri haqida malumot. Manzara janrining inson hayotiga ta'siri. Tasviriy san'at darslarida tabiat tasvirini ishlashda e'tibor qaratiladigan asosiy qonun-qoidalar va ushbu janrda O'zbekistonda ijod qilgan O'rol Tansiqboyev asarlarini tahlil qilib o'rganish.

Kalit so'zlari: tasviriy san'at, manzara, o'qituvchi, maktab, ijod, rang, natyurmort, tabiat, mo'jiza, estetika, maqsad, biryo'za, plan, epik, panorama, asar, rassom, garmoniya, mehnat, industrial.

Manzara-tasviriy san'atning eng qadimiy janrlaridan biri bo'lib, tarixiy, maishiy va natyurmort asarlarida fon sifatida muhim rol o'ynaydi. Manzara asarlarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali bayon etiladi va tabiat obrazini yaratadi. Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlar insonda tabiatga muhabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar ijodida tarixiy, maishiy va natyurmort mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga murojat qilganlariga guvohi bo'lamiz. Bu ko'rinishda albatta manzara janri fon vazifasini o'taydi. Evropada manzara janri XVI-XVII asrlarda rivojlana boshlagan. Gollandiya davlatida esa rassomlar tabiat ko'rinishini o'hshatib asl holatda tasvirlashga muvaffaq bo'lganlar. Rossiyada esa ushbu janrning rivojlanishi XVIII asrga tog'ri kelgan. Bu janr tashqi olamning go'zalligini aks ettirish bilan inson ongiga ijobiy ta'sir kuchiga ega hisoblanadi. Shu sababli rassomlar o'z yaratgan asarlari bilan tabiat olamining eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniylarini, tabiatga bo'lgan estetik munosabatlarni his qilishni o'rgatadi. Bunga esa I.Levitanning “Oltin kuz”, “Adabiy sokinlik uzra”, I. Shishkinning “O'rmon yiroqliklari”, B.Meskovning “Ural haqidagi o'ylar” nomli asarlarni misol keltirishimiz mumkin. Urish davrlaridan so'ng tashkil etilgan respublika badiiy ko'rgazmalari O'zbekistonda tasviriy san'atning rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsata boshladi. Rassomlar ona tabiatni o'zgacha his qilib, talqin etishni boshladi. Shahar, sanoat va lirik manzaralarini aks ettirmasin, biroq tabiatga qiziqishlari ortib boraverdi. Shu qiziqish va ishtiyoq bilan XX asrning 50 yillarida O'zbekistonda O'rol Tansiqboyev manzara janrining rivojlanishiga karvonboshi bo'la oldi. Rassom qishloq xo'jaligi tematikasiga oid asarlarni yaratdi. Misol uchun 1950 yili “O'zbekistonda bahor”, “Paxtani sug'orish” asrlarini olishimiz mumkin. Erta tongda esayotgan mayin shaboda, shildirab oqayotgan suv, salqin va mayin tabiatni uyg'otivchi ta'sirchan vositadir. 1951 yili yaratilgan “Ona o'lka” asarida hayotning ob'ektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishning epik holati aks ettirilgan. Bu rassom kompozitsiya echimini panorama usulida yechish, ijodining xarakterli nuqtalaridan bo'lib qoldi. 1957 yili “Qayraqum GES tongi” eng yaxshi industrial manzara asari deb tan olingan. Bu asarga qarab, katta keng gedroelektrostansiya qurilishi panoramasini, orqa planda biryo'za rangli Qayroqum dengizi, qurilishi hali nihoyasiga etmagan tepalik, bulldozer to'g'on ustidagi kranlar, oldi plandagi qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi yaratilgan mo'jizani ko'rishimiz mumkin. Nafaqat O'zbekiston manzarachi rassom ijodi balki, Evropa va Rossiya davlati rassomlarining yaratilgan asarlarini kuzatib, ularning takrorlanmas usullarni maktab o'quvchilariga mashg'ulot jarayonida na'muna sifatida tahlil qilib ko'rgazma sifatida foydalanish muhim omil bo'lib hisoblanadi. Albatta, yuqori darajadagi asarlarni yaratishda rassomning mashaqqatli mehnati yotadi. Ana shu mashaqqatli mehnatning samarasini ko'rsata olish va o'quvchilar qiziqishlarini



yadada oshirish bu tasviriy san`at o`qituvchisining mahoratiga bog`liq. O`z kasbiga sidqi dilgan yondoshgan va butun mahoratini ish solgan tasviriy san`t o`qituvchisi oldiga qo`ygan maqsadiga erishishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rangtasvir S.Abdurasulov. N.Tolipov T.: -2019y
2. “Rangshunoslik asoslari” O‘.N. Nurtoyev. Ilm –ziyo T.: -2008y
3. “Rangtasvir” X.Sultonov (grizaylda ishlash) metodik qo‘llanma T.: -2014
4. Tasviriy san`at o`qitish metodikasi S.F.Abdurasulov T.: -2012y
5. Tasviriy san`at asoslari. Rahim Hasanov. T.: -2008y



О‘ЗБЕКИСТОН ТАСВИРИЙ SAN‘ATINING RIVOJLANISHIGA HISSA QO‘SHGAN RASSOMLAR IJODINING MUHIM AHAMIYATI

Yusupova Shohista Alimjanovna

Guliston davlat universiteti, Guliston shahri

Tasviriy san‘at o‘qituvchisi

Tel: +998999030286

Bozorova Laylo Komiljon qizi

“San‘atshunoslik” fakulteti, Tasviriy san‘at

va muhandislik grafikasi kafedrası

73-21 guruh talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada tasviriy san‘at rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yurtimiz rassomlari, ularning hayoti va ijodi haqida umumiy ma‘lumot berildi. Har bir rassomning asarlari tahlil qilindi va usullari yo‘ritildi. Mashxur rassomlar ijodlari biz yoshlar hayotida muhim ahamiyati haqida fikrlar bildirildi.

Kalit so‘zlari: tasviriy san‘at, asr, rassom, ranglar, meros, ijod, real, betakror, tabiat, mo‘jiza, estetika, go‘zallik, miniatyura, xalq, yaxlit, jilo, asar, rassom, tarix, mahorat, iqtidor.

O‘zbekistonda san‘at va madaniyat qadimgi davrlardan buyon rivojlanib kelib, o‘z tarixiga ega bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa so‘ngi yillarda san‘at sohasiga berilgan e‘tiborning kuchayishi, ijodkor qalblarni yanada quvontirdi. Asrlar davomida har xil bosqichlarda san‘at va madaniyat merosimizni boyitdi. Bugungi kunda faxrlanishga arziydigan yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tashabbuslari bilan san‘at olamiga hozirgi yoshlarning yuqori darajalarga ko‘tarilishiga imkoniyatlar beqiyosdir. Buning uchun yoshlarimiz albatta bu sohaga ulkan xissa qo‘shgan yurtdoshlarimiz mehnatlarini bilmog‘i va qadrlamog‘i lozim.

O‘rta Osiyoda eng qadimiy tasviriy san‘at asarlari miniatyura hisoblanib, u san‘atining gullab yashnashi XV asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu yo‘nalishda ijod qilishni Kamoliddin Behzod yo‘lchi yulduz bo‘lib nur taratdi. Betakror miniatyurachi musavvir o‘z zamondoshlari: Sulton Xusayin Bayqaro, Shayboniyxon, shoirlardan Jomiy, Xatifi kabilarni portretini yaratib o‘z dastxatini tarix zarvarqlariga o‘chmas qilib muhirladi. Kamoliddin Behzod portretlarini ko‘pincha yaxlit ranglar bilan tasvirlagan. Bu miniatyurachi rassom borliqdagi butun xayotni teran kuzatib, o‘z tasavvurlari asosida kompozitsiyaning ma‘lum qoidalariga rioya qilib asarlarni yaratdi. Bizga ma‘lumki O‘rta Osiyo xalqlarining o‘tmishda qoldirgan madaniy merosi va urf-odatlarini xilma-xildir. Biroq tasviriy san‘at sohasida ular o‘zini real aksini topmadi. 1960 yildan boshlab O‘rol Tansiqboyev manzara janrida real va betakror asarlarni yaratdi va bu janr gullab rivojlanishiga asos soldi. Rassomning asarlari nafaqat O‘zbekiston davlatidagi san‘at muzeyi oltin fondida balkim, jahondagi mashhur muziylardan ham joy oldi. Bular: “Issiq ko‘l”, “Ona o‘lka”, “Tongdagi kuz” kabi asarlari Fredyakov golireyasida saqlanib kelinmoqda.

O‘zbekiston tasviriy san‘atining rivojlanishiga va ravnaq etishida hissa qo‘shgan olov qalbli va shijoatli Raxim Ahmedovning mehnatlari beqiyosir. Rassomning oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri yosh va iqtidorli rassomlarni tarbiyalab o‘qitish va O‘zbekiston tasviriy san‘at sohasini butun dunyoga tanitishdir. Musavvir “Ona o‘ylari”, “Tong”, “Sora Axmedova”, “Surxondaryolik ayol”. “Oq toshda bahor” asarlarini mukammal darajada yaratgan. Raxim Axmedov portret sohasida o‘ziga xoslik ko‘rinishini yarata oldi. Ayollar, qariyalar va yoshlar qiyofasi orqali nafaqat tashqi balkim, ularning chehrasidagi insoniy fazilatlarni ochib berishga intildi. Rangtasvir nafaqat tasviriy san‘atning turi balkim, shu bilan bir qatorda tasviriy san‘atning barcha turlari uchun asos va badiiy mahorat garovi ham bo‘lib hisoblanadi. Ranglar jilosini orqali g‘oyalarni ifoda etish imkoniyatlari kengaydi. Rassom borliq go‘zalliklari va jozibasini chuqur anglab tahlil qilib ifoda etish lozim. Aks holda tasvir jonsiz bo‘lib ko‘rinadi. Yuqorida sanab o‘tilgan tasviriy san‘at darg‘alari o‘z mahoratlari orqali mashxurlik darajasiga erisha oldi. Tasvirni butun vujudi bilan his qilib, tom ma‘nodagi asarlarni meros qilib, yurtimiz tasviriy san‘at sohasiga o‘chmas iz qilib qoldirishdi. Biz yoshlarning vazifasi bu asarlarni to‘g‘ri tahlil qilib, avaylab asrashdir. Zero, bu merosdan keyin tasviriy san‘at sohasi yanada yuksalib yuqori natijalarga erishishimiz shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmonov G‘.M Kompozitsiya asoslari. «Iqtisod-moliya», Toshkent, 2010
2. Tasviriy san‘at asoslari. Rahim Hasanov. T.:2008y
3. O‘zbekiston san‘ati tarixi. N.Abdullayev T.:2007y
4. O‘zbekiston tasviriy san‘ati tarixidan lavhalar. Norsaid Oyidinov T.:1997y

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМий-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(14-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
